

**Samarqand viloyati Payariq tumanida  
Tashabbusli budjetlashtirishning  
2021-2023-yil natijalari**

***Shonazarov Sherali Ilhomjonovich***

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Unversiteti*

*Moliya fakulteti*

*MMT-89 guruh talabasi*

[sheralilareshg@gmail.com](mailto:sheralilareshg@gmail.com)

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Samarqand viloyati Payariq tumani tashabbusli byudjetlashtirish loyihalari doirasida ayrim tahliliy masalalar bayon qilinadi. Jumladan, tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar, amalga oshirilgan loyihalar, fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'lari shakllanish manbalari va amalga oshirilgan loyihalar tahlilini ko'rib chiqamiz.*

***Kalit so'zlar:*** *Tashabbusli byudjet, taklif bildirish, mablag' ajratish, moderizatsiya, g'olib loyihani aniqlash, ovoz berish, pudrachini tanlash, shartnoma tuzish, qoldiq mablaglar, erkin qoldiq mablag'lar, tuman byudjeti, hisobot davri.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Samarqand viloyati Payariq tumani tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori 2021-2023-yillarda yo'naltirilgan mablag'larni ko'rishimiz mumkin.

**Samarqand viloyati Payariq tumani tashabbusli budjetlashtirish  
uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori.**

(mln so'mda)

<b>T/r</b>	<b>Ko'rsatkich nomi</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>
1.	Yil boshiga qoldiq	-	429 90,0	1 035,8
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	-	34 822,3	66 713,2
3.	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) Tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar	-	18 500,0	23 402,0
3.1.	<i>Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar</i>	-	12 341,0	17 287,0
3.2.	<i>Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar</i>	-	6 159,0	4 122,0
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	-	1 035,0	1 669,6

Tahlilimiz natijasida Samarqand viloyati Payariq tumanining yil boshiga qoldiq mablag'i 2023-yil 2022-yilga nisbatan 605 365,8 mln so'mga oshganligini ko'rib turibmiz. "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar esa 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 31 889 949,9 mlrd so'mga oshgan. Tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 2023-yil 2022-yilga nisbatan 4 902 000 mlrd so'mga oshgan. Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar 2023-yil 2022-yilga nisbatan 4 946,0 mlrd so'mga oshgan. Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar esa 2 037 mlrd so'mga kamaygan. Tahliliniz natijasi shuni ko'rsatib turibdiki fuqarolarning tashabbusli byudjetga bo'lgan ishonchi oshib borishi bilan ajratiladigan mablag'lar ham oshib bormoqda.

Samarqand viloyati Payariq tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarni moliyalashtirilgan takliflar soni va sarflangan mablag'larni qaysi sohalarga yo'naltirilganligini tahlil qilamiz.

**2-jadval**

**Samarqand viloyati Payariq tumani tashabbusli budjetlashtirish  
natijasida amalga oshirilgan tadbirlar.**

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag' (mlrd so'mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>		<b>5</b>	<b>33</b>	<b>19</b>	<b>831,768</b>	<b>17 954,0</b>	<b>23 402,0</b>
1.	Hududiy ichki yo'llar	0	1	5	0	1 165,0	6 242,0
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	2	11	4	44,695	5 528,0	4 920,0
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	4	3	219,817	1 579,0	3 720,0
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	10	5	455,0	7 580,0	6 000,0
5.	Mahalla guzari (mahallada umumfoydalanishda bo'lgan boshqa obyektlar)	0	7	0	0	2 102,0	0
6.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	0	0	112,256	0	0
7.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	0	0	0	0	0	0
8.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	0	0	0	0	0	0
9.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	0	0	0	0	0	0
10.	Boshqa tadbirlar	0	0	2	0	0	2 520,0

2-jadvalda berilgan tashabbusli budjetlashtirish loyihasi doirasida amalga oshirilgan tadbirlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, hududiy ichki yo‘llarni tamirlash va qurishga 2022-yilda 1 ta taklif berilgan va 1 165 000 mlrd so‘m mablag‘ sarflangan va bu 2023-yilga kelib 4 ta taklifga oshgan sarflangan mablag‘ 5 077 000 mlrd so‘mga oshgan.

Umumta‘lim maktablarini ta‘mirlash va jihozlashga 2022-yilda 11 ta taklif va sarflangan mablag‘ 5 528 300 mlrd so‘m sarflangan, 2023-yilda esa takliflar soni 7 taga kam berilgan, sarflangan mablag‘ 2023-yilda 2022-yilga nisbattan 608 300 mlrd so‘mga kamaygan.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarini ta‘mirlash va jihozlashga 2022-yilda 4 ta taklif va sarflangan mablag‘ 1 578 600 mlrd so‘m, 2023-yilda 3 ta taklif va sarflangan mablag‘ 3 720 000 mlrd so‘m. 2023-yilda 2022-yilga nisbattan takliflar 1 taga kam sarflangan mablag‘ 2 141 400 mlrd so‘mga ko‘paygan.

Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta‘mirlash va jihozlashga 2023-yil 2022-yilga nisbattan 5 ta taklif kam berilgan sarflangan mablag‘ 1 580 100 mlrd so‘mga kamaygan.

Mahalla guzari (mahallada umumfoydalanishda bo‘lgan boshqa obyektlar)ga 2022-yilda aholi tomonida 7 ta taklif berilgan, sarflangan mablag‘ 2 102 300 mlrd so‘m. 2023-yilda takliflar berilmagan.

Boshqa tadbirlarga 2022-yilda taklif berilmagan, 2023-yilda 2 ta taklif berilgan sarflangan mablag‘ 2 520 000 mlrd so‘m.

Tahlilimiz shuni ko‘rsatib turibdiki 2023-yil 2022-yilga nisbattan kam takliflar berilgan.

Samarqand viloyati Payariq tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg‘armasi mablag‘larining shakllanish manbalarining 2021-2023-yil to‘rtta chorak kesimida mablag‘larning shakllanishi.

**3-jadval**

**Samarqand viloyati Payariq tumanida Fuqarolar tashabbusli  
jamg‘armasi mablag‘larining shakllanish manbalari**

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar		103.3	18 717.0	21 510.0
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		653.7	10 858.0	32 556.0
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari		2 460.0	9 186.0
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	757	14 756.0	23 370.0
	Iqtisod qilingan mablag'lar			
Byudjetdan ajratilgan mablag'lar kamaytirilishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar				656 963.0
Qo'shimcha ajratilgan	PQ-5250ga asosan			
	PQ-409ga asosan			
	PQ-117ga asosan			
Jami ajratiladigan mablag'lar		1 514.0	46 791.0	743 585.0

3-jadval bo'yicha tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 2021-yil 103,3 ming so'm umumiy hisobda ajratigan. 2022-yilda umumiy hisobda 18 717.0 mln so'm mablag' ajratilgan. 2023-yilga kelib 21 510.0 mln so'm ajratigan. 2023-yil 2022-yilga nisbattan 78 821 628 mlrd so'm ko'p mablag' ajratilgan.

Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2021-yilda 653,7 ming so'm umumiy hisobda ajratigan. 2022-yilda 10 858.0 mln so'm umumiy hisobda ajratigan. 2023-yilda 32 556.0 mln so'm ajratigan. 2022-yil 2023-yilga nisbattan 1 444 800 mlrd so'mga kamaygan.

Erkin qoldiq mablag'lari (30%), Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi (30%),

Byudjetdan ajratilgan mablag'lar kamaytirilishi natijasida bo'shab qolgan mablag'larni ko'rishimiz mumkin.

Samarqand viloyati Payariq tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalarni, to'plangan ovozlar soni va moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'larni tahlilini ko'rib chiqamiz.

**4-jadval**

**Samarqand viloyati Payariq tumani tashabbusli budjetlashtirish  
natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)</b>	<b>Jami to'plagan ovozlar soni</b>	<b>Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori</b>
<b>2021-yilda</b>			
1.	Payariq tuman Yangiobod tez tibbiy yordam shaxobchasini joriy ta'mirlash	2474	455,0
2.	39-umumiy o'rta ta'lim maktabi Lola xovuz filialini ta'mirlash	15	40,0
3.	Yoshlar markazi binosini jixoz bilan bilan ta'mirlash	1020	112,256
4.	12-son MTM joriy ta'mirlash	143	219, 817
5.	33-umumiy o'rta ta'lim maktabi tamiri	6	44, 950
<b>2022-yilda</b>			
1.	Payariq tumani 79-maktabining faollar zali va asosiy o'quv binosini tom qismini va xonalarini joriy ta'mirlash va jihozlash kerak	2 320	315 000,0
2.	Kattaturk OSHP binosi 1956-yilda qurilgan. Hozitgi kunda ta'mirlashga yaroqsiz, shu sababli qaytadan qurib jihozlash kerak	1 714	650 000,0
3.	Payariq tumani XTB ga qarashli 10-maktabning quvvati 460 o`rinli, hozirda maktabda 792 nafar o`quvchi 2 navbatda o`qiydi, ta'lim sifatini rivojlantirish uchun maktabga qo`shimcha bino, foallar zali, oshxona, maktab atrofi 865 metr devor bilan o`rash kerak, asosiy	1 479	820 000,0

	binoni tom qismini to'liq ta'mirlash va 1-qavatda 65 m/kv pol ta'mirtalab maktabda qo'shimcha to'garaklar uchun 5 ta xonada isitish tizimi yo'q		
4.	76-maktab Deraza romlari 120 dona, 384 kv eshiklar, 26 dona 66 kv ni zamonaviy deraza va eshik romlariga almashtirish kerak	1 229	450 000,0
5.	Chelak ko'p tarmoqli markaziy poliklinikaga qarashli "Fitrat" MFYda joylashgan Samarqand filialini tom qismini issiqlik tizimi, eshik va romlari tashqi fasadi, ichki xonalarni ta'mirlash.	1 185	605 000,0
6.	Payariq tumani 65-maktabning 172 dona deraza va 58 dona eshik romlarini almashtirish	1 181	450 000,0
7.	Payariq tumani 14-DMTMni qo'shimcha 19 X 15 binosini joriy ta'mirlash	1 127	300 000,0
8.	Payariq tumani Turkibola MFY binosini joriy ta'mirlash uchun sarflansa maqsadli bo'lar edi	1 116	300 000,0
9.	Payariq tumani 9-Son DMTMni qo'shimcha binosini ta'mirlash	1 096	220 000,0
10.	Samarqand viloyati Payariq tumani №5-umumiy o'rta ta'lim maktabi Sport zalini ta'mirlash zarur maktabda jismoniy tarbiya va sport darslarini samarali o'tkazish uchun sport zali bugungi kun talabiga javob bermaydi.	963	90 000,0
11.	<b>Jami:</b>	46 094	14 300 000,0
<b>2023-yilda</b>			
1.	Samarqand davlat chet tillar insdtitutining Payariq xorijiy tillar fakulteti 100 o'rinli talabalar turar joyi binosini (ichki va tashqi qismlarini) joriy ta'mirlash muvofiq bo'ldi	3 706	1 139 958,8

2.	Payariq tumani Yangiobod MFYda 12-DMTTni joriy ta'mirlash	3 594	1 104 994,1
3.	Payariq tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabini joriy ta'mirlash	3 563	1 139 972,5
4.	Payariq tuman Chelak shaxri A.Yassaviy MFY Obod ko'chasi 2 uyda joylashgan Payariq tuman Tibbiyot birlashmasi Chelak ko'p tarmoqli poliklinikasini joriy ta'mirlash ishlari	3 550	1 139 796,8
5.	Payariq tumani 46-maktabga yangi sinfxonalar qurish	3 412	1 109 533,3
6.	40 DMTT joriy ta'mirlash (oshxonani va ximoya devorini yaxshilash, tamirdan chiqqan va yangi qurilgan binolarga issiqlik tizimini va pol qilish)	3 350	1 139 827,0
7.	Payariq tumani O'zbekiston MFY Qo'shtegirmon qishlog'ining ichki yo'llaridan 1600 metrini asphalt qoplamasi yotqizish	2 828	925 314,2
8.	Samarqand viloyati Payariq tumani Xalqoboq MFY Eshimoqsoq ichki ko'chasini 351 metr asphalt qilish	2 643	1 013 818,0
9.	Payariq tumani XTBga qarashli 97-maktabga qo'shiomcha bino qurish	2 556	1 139 928,5
10.	Payariq TTBga qarashli Choshtepa OSHPning Zarafshon filialiga zamonaviy bino qurish	2 456	1 139 622,1
11.	<b>Jami:</b>	48 310	9 217 973,7

4-jadval orqali 2021-yil Payariq tumanida g'olib deb topilgan loyihalarni to'plagan ovozlar soni bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, eng ko'p ovozni „Payariq tuman Yangiobod tez tibbiy yordam shaxobchasini joriy ta'mirlash” ga yig'ilgan bunda onlayn ovozlar 8ta, oflayin ovozlar soni 1 105ta, SMS orqali yig'ilgan ovozlar 1 361ta, jami ovozlar 2474ta.

Eng kam ovoz toplagan loyiha „33-umumiy o'rta ta'lim maktabi ta'mirlash” ga jami ovozlar soni 8tani tashkil qilgan.

2022-yilga kelib eng ko'p ovozni „Payariq tumani 79-maktabining faollar zali va asosiy o'quv binosini tom qismini va xonalarini joriy ta'mirlash va jihozlash kerak” yig'ilgan yani jami ovozlar soni 2 320 ta bu ovozlarning



hammasi SMS orqali yig'ilgan ovozlari hisoblanadi. Ajratilgan mablag' 315 000,0 ming so'm.

Eng kam ovoz to'plagan loyiha „Samarqand viloyati Payariq tumani №5-umumiy o'rta ta'lim maktabi Sport zalini ta'mirlash zarur maktabda jismoniy tarbiya va sport darslarini samarali o'tkazish uchun sport zali” bugungi kun talabiga javob bermaydi. Ovozlar soni 963tani tashkil qilgan. Ajratilgan mablag' 90 000,0 ming so'm.

2023-yilda „Samarqand davlat chet tillar insstitutining Payariq xorijiy tillar fakulteti 100 o'rinli talabalar turar joyi binosini (ichki va tashqi qismlarini) joriy ta'mirlash muvofiq bo'ldi” jami ovozlari soni 3 706ta, ajratilgan mablag' 1 139 958,8 mln so'm.

Eng kam ovozni „Payariq TTBga qarashli Choshtepa OSHPning Zarafshon filialiga zamonaviy bino qurish”ga yig'ilgan. Jami yig'ilgan ovozlari 2 456 ta, ajratilgan mablag' 1 139 622,1 mln so'm.

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda. Aholi o'rtasida tashabbusli byudjetga bo'lgan qiziqish ham ortib bormoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.

5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. УҮ О'роқов, ЈА Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Vaktoria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).

20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Ikramjon Masharipov. Yangi O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish jarayonlari. Общество и инновации.2024